

XII. DEMOGRAFIYA VA MEHNAT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024 yil 1 iyul holatiga viloyatda doimiy aholi soni 2 057,7 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 13,7 ming kishiga yoki 0,7 foizga ko'paydi.

Buxoro viloyatining doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot (2024 yil 1 iyul holatiga)

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, foiz		
	Jami	shu jumladan:		Jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq
Buxoro viloyati	2 057,7	759,3	1 298,4	100,7	100,7	100,6
Buxoro sh.	297,4	272,3	25,1	101,0	101,0	100,4
Kogon sh.	65,1	65,1	-	100,6	100,6	-
<i>tumanlar</i>						
Buxoro	179,8	41,1	138,7	100,8	101,0	100,7
Vobkent	149,8	29,0	120,8	100,7	100,7	100,8
Jondor	186,6	35,9	150,7	100,6	100,6	100,6
Kogon	85,3	6,4	78,9	100,8	100,0	100,9
Olot	105,0	39,6	65,4	100,7	100,5	100,8
Peshko'	131,9	16,8	115,1	100,5	100,6	100,5
Romitan	152,0	37,9	114,1	100,4	100,3	100,4
Shofirkon	187,0	43,1	143,9	100,3	100,0	100,3
Qorako'l	172,8	66,3	106,5	100,6	100,5	100,7
Qorovulbozor	20,2	11,5	8,7	101,5	100,9	102,4
G'ijduvon	324,8	94,3	230,5	100,7	100,7	100,7


Doimiy aholi sonida erkak va ayollar to'g'risida ma'lumot
(2024 yil 1 iyul holatiga)

	<i>Doimiy aholi soni, ming kishi</i>		
	<i>Jami</i>	<i>shu jumladan:</i>	
		<i>erkak</i>	<i>ayol</i>
Buxoro viloyati	2 057,7	1 031,8	1 025,9
Buxoro sh.	297,4	147,5	149,9
Kogon sh.	65,1	31,7	33,4
<i>tumanlar</i>			
Buxoro	179,8	90,1	89,7
Vobkent	149,8	75,5	74,3
Jondor	186,6	92,6	94,0
Kogon	85,3	42,4	42,9
Olot	105,0	52,6	52,4
Peshko'	131,9	66,2	65,7
Romitan	152,0	77,1	74,9
Shofirkon	187,0	94,4	92,6
Qorako'l	172,8	85,5	87,3
Qorovulbozor	20,2	10,0	10,2
G'ijduvon	324,8	166,2	158,6

2024 yil 1 iyul holatiga Buxoro viloyatining shahar va tumanlar kesimida eng ko'p aholi soni G'ijduvon tumanida 324,8 ming kishini (viloyat aholi sonidagi ulushi 15,8 foiz), Buxoro shahrida 297,4 ming kishini (14,5 foiz), Shofirkon tumanida 187 ming kishini (9,1 foiz) va Jondor tumanida 186,6 ming kishini (9,1 foiz) tashkil etdi.

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'lish sur'ati

(2024 yil 1 iyul holatiga, foizda)




Hududlar bo'yicha 2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan aholi sonining eng yuqori o'sishi Qorovulbozor (2,5 foiz), Buxoro shari (2,2 foiz), Kogon (2,0 foiz) va Vobkent tumanlarida (2,0 foiz) kuzatildi.

Aholi soni to'g'risida ma'lumot
(2024 yil, 1-yanvar kishi)

	<i>Jami aholi soni</i>	<i>shundan:</i>			
		<i>0-2 yosh</i>	<i>3-6 yosh</i>	<i>7-16 yosh</i>	<i>0-16 yosh</i>
Buxoro viloyati	2 044 044	132 853	156 695	345 219	634 767
Buxoro sh.	294 536	19 677	18 758	45 735	84 170
Kogon sh.	64 687	4 104	4 247	10 353	18 704
<i>tumanlar</i>					
Buxoro	178 404	10 353	12 896	29 248	52 497
Vobkent	148 670	10 056	11 706	24 366	46 128
Jondor	185 531	12 004	14 783	32 843	59 630
Kogon	84 568	5 403	7 066	14 509	26 978
Olot	104 319	6 412	8 158	18 029	32 599
Peshko'	131 167	8 606	10 771	22 863	42 240
Romitan	151 397	9 648	12 271	25 430	47 349
Shofirkon	186 484	11 768	14 535	30 619	56 922
Qorako'l	171 856	11 127	14 124	29 847	55 098
Qorovulbozor	19 906	1 295	1 463	3 070	5 828
G'ijduvon	322 519	22 400	25 917	58 307	106 624

Doimiy aholi sonining asosiy yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi

(2024-yil 1 yanvar; jamiga nisbatan foizda)




2024-yil yanvar-iyun oylarida tug'ilish, nikoh va nikohdan ajralishlar

	kishi			har 1000 kishiga	
	2023 yil	2024 yil ¹⁾	o'sish, kamayish	2023 yil	2024 yil
Tug'ilganlar	20 289	19 826	-463	20,3	19,4
O'lganlar	4 179	4 397	218	4,2	4,3
Tabiiy o'sish	16 110	15 429	-681	16,1	15,1
Nikohlar	5 936	5 818	-118	5,9	5,7
Ajralishlar	1 241	1 162	-79	1,2	1,1

¹⁾ dastlabki ma'lumot

2024 yil yanvar-iyun oylarida tug'ilganlar


(har 1000 kishiga)



tug'ilganlar o'lganlar

Doimiy aholi soni


(2024 yil 1 iyul holatiga, ming kishi)



shahar aholisi qishloq aholisi

Tug‘ilish. 2024 yil yanvar-iyun oylarida tug‘ilganlar soni 19 826 kishini (bu erda va bundan keyin tug‘ilganlar sifatida faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan) tashkil qildi va 2023 yilning shu davriga (20 289 kishi) nisbatan 463 taga kamaydi. Tug‘ilish koeffitsienti mos ravishda 19,4 promilleni tashkil qildi va 2023 yilning shu davriga (20,3 promille) nisbatan 0,9 promillega kamaydi.

Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsienti
(2024 yil yanvar – iyun)



Ma'lumot uchun:

2024 yil davomida eng ko'p tug'ilish iyun oyida, ya'ni 3 723 kishi qayd etilganligi kuzatildi

Tug‘ilish koeffitsientining sezilarli darajada o‘shishi Buxoro shahrida (20,1 promilledan 24,8 promillega) va Vobkent (21,3 promilledan 21,5 promillega) tumanida qayd etildi.

Ma'lumot uchun:

Oxirgi 3 yillikda Buxoro viloyatida eng yuqori tug'ilish 2024 yilda, ya'ni 46,6 ming bola, 2023 yilda, ya'ni 45,1 ming bola, aksincha eng past - 2022 yilda, ya'ni 43,2 ming bola qayd etilgani kuzatildi.


O'lim darajasi. 2024 yil yanvar-iyun oylarida o'lganlar soni 4 397 kishini tashkil qildi va 2023 yilning shu davriga (4 179 kishi) nisbatan 218 taga ko'paydi. Mos ravishda o'lim koeffitsienti 4,3 promilleni tashkil qildi (2023 yil yanvar-iyunda 4,2 promille).

Ma'lumot uchun:

2024 yil davomi eng ko'p o'lim iyun oyida, ya'ni 803 kishi qayd etilgani kuzatildi.


Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsienti

(2024 yil yanvar – iyun)



O‘lim sonining kamayganligi barcha tumanlarida kuzatildi. Ro‘yxatga olingan jami o‘lganlarning 66,5 foiz qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,6 foiz o‘simtalardan, 4,7 foiz baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,2 foiz ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 5,0 foiz nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 0,7 foiz yuqumli va parazitlar kasalliklaridan hamda 9,3foiz boshqa kasalliklardan vafot etgan.

2024 yil yanvar-iyun oylarida o‘lganlarning asosiy o‘lim sababi bo‘yicha taqsimlanishi
(jami vafot etganlarga nisbatan foizda)



Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024 yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 4 270 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 6 056 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i minus 1 786 kishiga (2023 yilning shu davrida minus 1 648 kishi) teng bo'ldi.

Migratsiya saldosining yuqori darajasi G'ijduvon tumani (minus **579**), Shofirkon tumani (minus **393**) hamda Qorako'l (minus **346**) tumanida qayd etildi. Migratsiya saldosini ijobiy darajasi Buxoro (plyus **142**) va Qorovulbozor (plyus **108**) tumanlarida kuzatildi.

Aholi migratsiyasi
(yanvar-iyun, kishi)

	<i>Kelish</i>		<i>Ketish</i>		<i>Migratsiya saldos</i>	
	<i>2023 yil</i>	<i>2024 yil</i>	<i>2023 yil</i>	<i>2024 yil</i>	<i>2023 yil</i>	<i>2024 yil</i>
Buxoro viloyati	3 830	4 270	5 478	6 056	-1 648	-1 786
Buxoro sh.	1 056	1 326	1 333	1 344	-277	-18
Kogon sh.	246	323	285	311	-39	12
<i>tumanlar</i>						
Buxoro	656	619	449	477	207	142
Vobkent	149	170	341	385	-192	-215
Jondor	122	160	313	316	-191	-156
Kogon	402	404	278	329	124	75
Olot	68	87	324	229	-166	-142
Peshko‘	113	103	195	200	-82	-97
Romitan	217	78	202	255	15	-177
Shofirkon	201	234	528	627	327	-393
Qorako‘l	90	115	428	461	-388	-346
Qorovulbozor	185	232	114	124	71	108
G‘ijduvon	325	419	778	998	-453	-579

Nikohlar. 2024 yil yanvar-iyun oylarida FHDYO organlarida 5 818 ta nikohlar olingan bo‘lib, 1000 aholiga nisbatan 5,7 ta nikoh tuzish (2023 yilning tegishli davrida 5 936 ta) koeffitsienti 5,9 promillega kuzatildi.


Ma'lumot uchun:

2024 yil davomida eng ko'p nikoh yanvar oyida, ya'ni 1 246 ming birlik qayd etilgani kuzatildi

Nikoh tuzish ko'effitsientining o'sishi Olot tumanida (5,6 promilidan 7,1 promillega) kuzatildi.

Hududlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va ko'effitsienti¹⁾

(yanvar-iyun)




Nikohdan ajralishlar. 2024 yil yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 1 162 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan 1,1 ta nikohdan ajralishlar (2023 yilning tegishli davrida 1 241 ta) nisbatan 79 ta kamaydi. Nikohdan ajralish ko'effitsientining sezilarli darajada o'sishi Peshko' tumanida (0,8 dan 1,1 promillega) kuzatildi.

Ma'lumot uchun:

2024 yil davomida eng ko'p nikohdan ajralish may oyida, ya'ni 218 birlik qayd etilgani kuzatildi.

Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti
(yanvar-iyun)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni meyoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda - qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash - oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 ta aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti - hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti - hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan ko'chib kelishni statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida aniqlanadi.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududdan uning tashqarisiga ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatdan chiqarishda tuziladigan ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqalarini qayta ishlash natijasida aniqlanadi.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) - hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.